

ALISHER NAVOIY ASARLARI ORQALI O'QUVCHILAR QALBIDA VA  
ONGIDA VATANPARVARLIKNI SINGDIRISH.

*Kenjayeva Nargiza Elmurodovna*  
*Navoiy viloyati Karmana tumani*  
 4-IDUM ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada bugungi ijtimoiy-madaniy hayotda yosh avlodni Alisher Navoiy asarlari orqali vatanparvarlik ruhida tarbiyalash haqida aytilgan.

**Kalit so'zlari:** Vatanparvarlik, badiiy adabiyot, tarix

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev «O'zbek mumtoz va zamonaviy adabiyotini xalqaro miqyosda o'rganish va targ'ib qilishning dolzarb masalalari» mavzusidagi xalqaro konferensiya ishtirokchilariga yo'llagan tabrigida “Adabiyot, san'at va madaniyat yashasa, millat va xalq, butun insoniyat bezavol yashaydi” deb ta'kidlanganlari ham yoshlarimizni har tomonlama barkamol qilib tarbiyalashda adabiyot va san'atga e'tibor qaratish muhim ijtimoiy masala ekanligidan dalolat beradi.

Yosh avlodni buyuk kelajak uchun jonkuyar farzandlar qilib tarbiyalashda, eng asosiy e'tibor ularning qalbida vatan tuyg'usini chuqur ildiz ottirish, ularni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga qaratiladi. Hazrat Alisher Navoiy asarlarida Vatan mavzusi, vatanparvarlik g'oyasi muhim o'rin tutadi. Ulug' mutafakkir tug'ilib osgan shahrini qaynoq muhabbat bilan sevgan. “Hayrat ul-abror ”da o'z kindik qoni tomgan zamin ta'rifiga alohida maqolat bag'ishlagan bo'lsa, ”Saddi Iskandariy” dostonida ham Hurosonu Movorounnahrni madh yetgan. Jumladan:

**Mash'ala yuqkim,duri tobon degil,  
 Dur demagil,mehri duraxshon degil.  
 Ko'k yetti iqlimida sulton ham ul,  
 Balki alar borcha tanu jon ham ul.**

Ulug' shoir talqinicha, Vatan jannat bog'laridan afzal, falakdandan ham keng, yettinchi osmondan ham yuksakdir. Vatan-durri tobon, Vatan-nur, Vatan-mehri duraxshon, Vatan-sulton, Vatan-tanu jon. Ona yurtning jug'rofiy muhiti, obi havosi, ko'rku tarovati, oltinga teng tuprog'i, tog'lari, sahrolari, sabzayu rayhonlari, nurafshon fasllarining oltin tovlanishlarini nozik va samimiy sevgi bilan tarannum etgan xassos shoir yana yozadi:

**Yerda bu iqlim erur dilpazir,  
 Ko'kda quyosh toramidek benazir.**

Faylasuf shoir talqinicha, Vatan tuprog'ida nash'u namo topgan har bir daraxt yuz gul ochadi, undagi har gulning muattar hidi bir yig'och masofaga tarqaladi. Ona yurt ariqlarida oqqan zilol suvning sadosi bulbullar xonishlariga uyg'undir:

**Suv tarab angiz chekib g'ulg'ula,  
 O'ylaki ishrat nafasi bulbula.**

Hazrat Navoiy tabarruk qadami yetgan har bir muqaddas tuproqqa hamisha cheksiz hayrat-hayajon, yuksak ehtiromlar va sadoqat bilan munosabatda bo'lgan. Ulug' mutafakkir aziz poyi yetgan yurtning har bir go'shasi haqida o'lmas satrlar yozib qoldirgan. Bugun o'sha bitiklar yuz yillar sinovidan o'tib, tarix zarvarlarida o'chmas yodgorlikka aylandi. Navoiy asarlari muqaddas Qur'oni Karim va hadisi shariflardan oziqlangan. Buni uning cheksiz lirik g'azaliyoti, asarlaridagi baytlarga diqqat bilan nazar tashlash orqali ilg'ash mumkin. Vatan mavzusi zamonaviy o'zbek she'riyatida alohida yirik ko'lam kasb etadi. Bu esa alohida tadqiqot mavzusi hisoblanadi. Ta'limda vatan kontsepti haqida tushuncha berish, uni o'quvchilar ongiga singdirish esa har doim o'z ahamiyatini yo'qotmaydigan va

dolzarblik kasb etadigan mavzu bo'lib qolaveradi. Shuni alohida ta'kidlab o'tish kerakki, mumtoz adabiyotda vatan kontsepti, uning o'ziga xos izohi va ma'no nozikliklariga deyarli e'tibor qaratilmagan. Ayniqsa, o'z ijodi bilan inson ma'naviy kamolotini ko'zlagan Alisher Navoiy lirikasida ham vatan tushunchasi o'ziga xos tarzda qo'llanadi. Uning lirik asarlariga diqqat qaratadigan bo'lsak, turfa mavzular, g'oyalar teranligi, mohiyat betakrorligini ilg'ash mumkin.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Atadjanova Sh. "Oilada o'spirin-yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda milliy qadriyatlardan foydalanishning pedagogik asoslari": ped.fan.nomz. dis-yasi. - T.: TDPU, 2001.
2. Normatova, M., & Ikromjon, X. (2021). "QUTADG'U BILIG" IKKI JAHONNI TUTISHGA OCHUVCHI YO'L. Oriental Art and Culture,
3. Asqarova M. (2020) O'zbek adabiy tanqidi taraqqiyoti.